

KREATIV TA'LIM METODLARI VA DARS JARAYONLARIDA FOYDALANISHNING SAMARASI

Zarnigor Ziyodullayeva

UBS Pedagogika magistratura mutaxassisligi 1-kurs talabasi,

Kamola Yusupova

UBS "Ijtimoiy-gumanira va tillar" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativlik va kreativ pedagogika shuningdek, kreativ ta'lim jarayonini tashkil etish haqida fikr yuritilib, zamonaviy ta'lim mazmunini tashkil etuvchi kreativ usul va vositalar, ulardan dars jarayonida foydalanish samarasi to'g'risida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются креативной и креативная педагогика, а также организация креативное образовательного процесса, креативной методы и средства, составляющие содержание современного образования, и эффективность их использования в ходе урока.

Annotation: This article discusses creative and creative pedagogy, as well as the organization of the creative educational process, creative methods and means that make up the content of modern education, and the effectiveness of their use during the lesson.

Kalit so'zlar: Kreativ, ta'lim, pedagog, metodika, STEAM, noodatiy, qiziqarli, uslub, loyiha.

Ключевые слова: Креативной образовательный, педагогический, методический, STEAM, необычный, интересный, метод, проект.

Keywords: Creative, educational, pedagogic, methodology, STEAM, unusual, interesting, method, project.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar ijodiy va innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy o'qitish usullari tezkor rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlariga javob bera olmayapti. Shuning uchun kreativ ta'lim metodlari ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh kreativ ta'lim va kreativ ta'lim metodlari deganda nimani tushunamiz? Quyida ushbu savollarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Kreativ ta'lim metodlari deganda o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar tushuniladi. Bu metodlar ta'lim jarayonida faqat bilim olish emas, balki tahlil qilish, yechim topish va yangilik yaratishga qaratadi. Kreativ metodlar ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashga asoslanadi. Bunda o'quvchilar o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Muammolarni o'ziga xos tarzda yechish uchun ijodiy yondashuvni o'rganadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar real muammolarni hal qilish uchun guruh bo'lib ishlaydilar. Bu usul ijodiy fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularda ma'lumotni yaxshi eslab qolish imkonini beradi hamda o'quvchilar muayyan masalalar bo'yicha tahlil olib borib, mustaqil ravishda ko'nikmalarga ega bo'lalilar. Masalalarga yechim topish orqali o'quvchilar ijodiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Qiziqarli va noodatiy yondashuvlar o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Kreativ loyiha va muammolarga asoslangan yondashuvlar orqali o'quvchilar real hayot tajribasini hamda mustaqil ravishda qaror qabul qilishga o'rganadilar.

Kreativ yondashuvda o'quvchilar bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabatni o'rnatish muhim hisoblanadi. O'qituvchi topshiriqlar yuzasidan o'quvchining javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish hamda o'quv jarayonlarida yuzaga keladigan nizolarning oldini

olish orqali o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash yo'lida jamoada sog'lom raqobatga asoslangan muhitni yaratadi.

O'quvchilarning faoliyatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish orqali o'quvchilar bilan ta'limiy hamkorlikka erishiladi.

Muammoli vaziyat ta'lim berish usulidan foydalanilganda o'quvchilar eslab qolish uchun tayyor bilimlarni olibgina qolmay, balki, mazkur bilimlarni mustaqil ravishda egallashni ham o'rganadilar. Shuningdek o'quvchilarda aqliy faoliyatning sinchkovlik bilan chiqarilgan xulosalarni isbot qila olishlik hamda ularning to'g'riligiga dalillar keltira bilishlik singari muhim xislatlari ham shakllanadi.

Muammoli ta'lim berish usuli o'quvchilarni faolashtirishning muhim shaklidir. Uning asosiy elementlari muammo, sabab, oqibat va yechim bo'lib o'quvchilar mustaqil ravishda o'rganilayotgan mavzuga oid muammoli vaziyatlarni o'ylab topish, ularni yuzaga keltirish sabablari, bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar va ularni hal etish chora-tadbirlarini mustaqil kichik guruxlarga bo'lingan holda hal etish jarayoni va xulosalarning to'g'riligini amaliy jihatdan o'rganadilar va erkin fikrlarini bayon etadilar.

Kreativ metodlarga asoslangan ta'lim shakllaridan yana biri tashkilotchilik malakasidan to'g'ri foydalanishdir. Tashkilotchilik o'quvchilar bilan ishlashda muhim rol o'ynaydi. Tashkilotchilikda o'quvchilar bilan individual ishlash talab etiladi. Asosan guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish, o'quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish, o'quvchilarning diqqatini boshqarish, darslarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilar o'rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish orqali ularning o'quv faolliklarini oshirishga erishiladi.

Kreativ metodlar o'quvchilarni noodatiy yondashuvlar orqali yangicha fikrlashga undaydi. Ta'lim jarayoni o'yinlar, loyihalar va interaktiv mashg'ulotlar yordamida qiziqarli bo'ladi. Bu bilan o'quvchilar amaliy tajriba orttirib, real muammolarni yechishga qodir bo'ladi. Shu jarayonda har bir o'quvchining qobiliyat va qiziqishlariga mos ta'lim metodlari ishlatiladi. Masalan, Robotexnika va texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonida tobora muhim o'rin egallamoqda. Robotexnik o'yinlar bolalar va yoshlarning texnik bilimlarini oshirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Quyida robotexnik uyinga oid misol keltirib utamiz.

Robotexnika asoslari – mexanika, elektronika va dasturlash – o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish: Robotlar yaratish va ularni dasturlash jarayonida o'quvchilar yangi yechimlar ishlab chiqish ko'nikmasini rivojlantiradilar. Jamoada ishlash ko'nikmasi: Robotexnik loyihalar ko'pincha guruhda amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarga muloqot va hamkorlik qilishni o'rgatadi. Robotexnik o'yinlar matematika, fizika, informatika va texnologiya fanlari bo'yicha bilimlarni oshirishga birlashtirishga yordam beradi.

Maktabda kreativ ta'limni qo'llash usullari turlicha bo'lishi mumkin. O'quvchilarga ma'lum bir mavzu bo'yicha loyiha yaratish topshirig'i beriladi. Masalan, ekologiya darsida o'quvchilar chiqindilarni qayta ishlash loyihasini ishlab chiqishlari mumkin. Bu usul jamoaviy ishlash va amaliy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Ta'lim jarayonini o'yinlar yordamida tashkil etish o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi. Misol uchun matematika darsida topshiriqlarni virtual o'yin formatida taqdim qilish o'quvchilarni faollashtiradi.

Ta'limga oid virtual o'yinlar o'yin orqali o'rgatishni maqsad qilgan dasturlar bo'lib, ular bolalar va kattalarga turli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda yordam beradi. Quyida ta'limga oid virtual o'yinlarga misollar keltirilgan:

1. Bolalar uchun ta'limiy o'yinlar

ABCmouse – bolalarga harflar, so'zlar, matematika va san'atni o'rgatishga qaratilgan interaktiv o'yin.

2. Matematika va mantiqiy fikrlash o'yinlari

Prodigy Math Game – matematika qobiliyatlarini oshirish uchun sarguzasht janridagi o'yin.

3. Fan va texnologiyaga oid o'yinlar

Minecraft: Education Edition – matematika, tarix, biologiya va kompyuter dasturlashni urgatadigan o'yinlar. o'yinlar

4. Tabiat va tarix fanlariga oid o'yinlar

National Geographic Kids – tabiat va tarix fanlarini o'rgatishga qaratilgan interaktiv o'yinlar.

Kreativ metodlarda dars jarayonida aktyorlik o'yinlarini o'ynashi, bolalarni qiziqishlarini oshiribgina qolmay, jarayonga nodatiy yondashuvni o'rgatadi. O'quvchilar dars davomida turli rollarga kirib, muammolarni hal qiladilar. Masalan, tarix darsida mashhur tarixiy voqealarni teatr ko'rinishida sahnalashtirish mumkin. Bu usullar ijodkorlikni rivojlantiradi va o'rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshiradi.

Muammo asosida o'qitish ham o'quvchini o'ylashga va muammolarga yechim izlashga majbur qiladi. O'quvchilarga hayotiy masalalar bo'yicha mustaqil fikrlash va yechim topish vazifasi beriladi. Masalan, "Maktabni qanday ekologik muammolardan himoya qilish mumkin?" mavzusida guruhda ishlash topshirig'i. Ushbu yondashuv mustaqil fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Kreativ metodlarning yana bir usuli STEAM loyihasi doirasi o'quvchilarni o'qitishdir. Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtirgan loyihalar o'quvchilar uchun yangi bilimlar olishning qiziqarli usulidir. Masalan, robototexnika darslari o'quvchilarni ijodiy fikrlash va texnik qobiliyatlarni rivojlantirishga undaydi. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari uqib oladilar. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. O'quvchilar o'quv jarayonida faollik ko'rsatib, o'z bilimlarini mustaqil mustahkamlaydi. Ta'lim jarayoni qiziqarli va samarali bo'lib, o'quvchilarni ijod qilishga undaydi. Kreativ metodlar orqali shakllangan ko'nikmalar o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki ijodiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bugungi kun o'quvchilari texnologiyalar bilan uyg'unlashgan muhitda o'smoqda, shuning uchun ularga ta'lim berishda kreativ metodlarni qo'llash o'quv jarayonini samaraliroq qiladi. Maktabda kreativ ta'limni qo'llash ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O'quvchilarni o'quv jarayonining markaziga qo'yib, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga katta yordam beradi. O'qituvchilarni kreativ metodlarni o'zlashtirishga tayyorlash va ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish ushbu maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois bugungi kun talablari qatorida maktablar o'quv dasturlarini ijodiy elementlar bilan boyitishi ta'lab etiladi.

Shuni ta'kidlashni istardimki, kreativ o'qitish uslublari bilan birgalikda o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

Shunday ekan kreativ ta'lim metodlari zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki ijodkor, tanqidiy fikrlaydigan va muammolarni hal qilishga qodir shaxs sifatida shakllanadilar. Ta'lim jarayonida kreativ metodlarni keng qo'llash o'qituvchilardan yuqori darajadagi professionallikni va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Shu boisdan, pedagoglar uchun kreativ metodlarni o'zlashtirish bo'yicha seminar va to'garaklar tashkil etilishi zarur deb hisoblagan xolda pedagoglarda kreativlik sifatlarini oshirish uchun quyidagi takliflarni tavsiya etamiz:

1. Pedogoglarning kreativ metodlardan foydalanishi uchun maktab darsliklariga mantiq fan saotlarini kiritish.
2. Bolalarni STEAMga jalb qilish nafaqat maktab yoshidan balki maktabgacha yoshdan boshlab o'rgatish kerak.
3. Kreativ metodlardan foydalanish bo'yicha internet saytlarida (telegram, facebook, youtube) online darslar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umumiy pedagogika. B.X.Xodjayev. "Sano-standart" nashriyoti, Toshkent-2017
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD,2014.
3. Инновацион таълим технологиялари /Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: "Сано стандарт" нашриёти, 2015. – 81-б.
4. Internet saytlar.

KREATIV TA'LIM METODLARI VA DARS JARAYONLARIDA FOYDALANISHNING SAMARASI**Zarnigor Ziyodullayeva**

UBS Pedagogika magistratura mutaxassisligi 1-kurs talabasi,

Kamola Yusupova

UBS "Ijtimoiy-gumanira va tillar" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativlik va kreativ pedagogika shuningdek, kreativ ta'lim jarayonini tashkil etish haqida fikr yuritilib, zamonaviy ta'lim mazmunini tashkil etuvchi kreativ usul va vositalar, ulardan dars jarayonida foydalanish samarasi to'g'risida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются креативной и креативная педагогика, а также организация креативное образовательного процесса, креативной методы и средства, составляющие содержание современного образования, и эффективность их использования в ходе урока.

Annotation: This article discusses creative and creative pedagogy, as well as the organization of the creative educational process, creative methods and means that make up the content of modern education, and the effectiveness of their use during the lesson.

Kalit so'zlar: Kreativ, ta'lim, pedagog, metodika, STEAM, noodatiy, qiziqarli, uslub, loyiha.

Ключевые слова: Креативной образовательный, педагогический, методический, STEAM, необычный, интересный, метод, проект.

Keywords: Creative, educational, pedagogic, methodology, STEAM, unusual, interesting, method, project.

Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar ijodiy va innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy o'qitish usullari tezkor rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlariga javob bera olmayapti. Shuning uchun kreativ ta'lim metodlari ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh kreativ ta'lim va kreativ ta'lim metodlari deganda nimani tushunamiz? Quyida ushbu savollarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Kreativ ta'lim metodlari deganda o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar tushuniladi. Bu metodlar ta'lim jarayonida faqat bilim olish emas, balki tahlil qilish, yechim topish va yangilik yaratishga qaratadi. Kreativ metodlar ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashga asoslanadi. Bunda o'quvchilar o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Muammolarni o'ziga xos tarzda yechish uchun ijodiy yondashuvni o'rganadi. Ushbu jarayonda o'quvchilar real muammolarni hal qilish uchun guruh bo'lib ishlaydilar. Bu usul ijodiy fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularda ma'lumotni yaxshi eslab qolish imkonini beradi hamda o'quvchilar muayyan masalalar bo'yicha tahlil olib borib, mustaqil ravishda ko'nikmalarga ega bo'ladi. Masalalarga yechim topish orqali o'quvchilar ijodiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Qiziqarli va noodatiy yondashuvlar o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Kreativ loyiha va muammolarga asoslangan yondashuvlar orqali o'quvchilar real hayot tajribasini hamda mustaqil ravishda qaror qabul qilishga o'rganadilar.

Kreativ yondashuvda o'quvchilar bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabatni o'rnatish muhim hisoblanadi. O'qituvchi topshiriqlar yuzasidan o'quvchining javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish hamda o'quv jarayonlarida yuzaga keladigan nizolarning oldini

olish orqali o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash yo'lida jamoada sog'lom raqobatga asoslangan muhitni yaratadi.

O'quvchilarning faoliyatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish orqali o'quvchilar bilan ta'limiy hamkorlikka erishiladi.

Muammoli vaziyat ta'lim berish usulidan foydalanilganda o'quvchilar eslab qolish uchun tayyor bilimlarni olibgina qolmay, balki, mazkur bilimlarni mustaqil ravishda egallashni ham o'rganadilar. Shuningdek o'quvchilarda aqliy faoliyatning sinchkovlik bilan chiqarilgan xulosalarni isbot qila olishlik hamda ularning to'g'riligiga dalillar keltira bilishlik singari muhim xislatlari ham shakllanadi.

Muammoli ta'lim berish usuli o'quvchilarni faolashtirishning muhim shaklidir. Uning asosiy elementlari muammo, sabab, oqibat va yechim bo'lib o'quvchilar mustaqil ravishda o'rganilayotgan mavzuga oid muammoli vaziyatlarni o'ylab topish, ularni yuzaga keltirish sabablari, bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlar va ularni hal etish chora-tadbirlarini mustaqil kichik guruxlarga bo'lingan holda hal etish jarayoni va xulosalarning to'g'riligini amaliy jihatdan o'rganadilar va erkin fikrlarini bayon etadilar.

Kreativ metodlarga asoslangan ta'lim shakllaridan yana biri tashkilotchilik malakasidan to'g'ri foydalanishdir. Tashkilotchilik o'quvchilar bilan ishlashda muhim rol o'ynaydi. Tashkilotchilikda o'quvchilar bilan individual ishlash talab etiladi. Asosan guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish, o'quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish, o'quvchilarning diqqatini boshqarish, darslarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilar o'rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish orqali ularning o'quv faolliklarini oshirishga erishiladi.

Kreativ metodlar o'quvchilarni noodatiy yondashuvlar orqali yangicha fikrlashga undaydi. Ta'lim jarayoni o'yinlar, loyihalar va interaktiv mashg'ulotlar yordamida qiziqarli bo'ladi. Bu bilan o'quvchilar amaliy tajriba orttirib, real muammolarni yechishga qodir bo'ladi. Shu jarayonda har bir o'quvchining qobiliyat va qiziqishlariga mos ta'lim metodlari ishlatiladi. Masalan, Robotexnika va texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonida tobora muhim o'rin egallamoqda. Robotexnik o'yinlar bolalar va yoshlarning texnik bilimlarini oshirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Quyida robotexnik uyinga oid misol keltirib utamiz.

Robotexnika asoslari – mexanika, elektronika va dasturlash – o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish: Robotlar yaratish va ularni dasturlash jarayonida o'quvchilar yangi yechimlar ishlab chiqish ko'nikmasini rivojlantiradilar. Jamoada ishlash ko'nikmasi: Robotexnik loyihalar ko'pincha guruhda amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarga muloqot va hamkorlik qilishni o'rgatadi. Robotexnik o'yinlar matematika, fizika, informatika va texnologiya fanlari bo'yicha bilimlarni oshirishga birlashtirishga yordam beradi.

Maktabda kreativ ta'limni qo'llash usullari turlicha bo'lishi mumkin. O'quvchilarga ma'lum bir mavzu bo'yicha loyiha yaratish topshirig'i beriladi. Masalan, ekologiya darsida o'quvchilar chiqindilarni qayta ishlash loyihasini ishlab chiqishlari mumkin. Bu usul jamoaviy ishlash va amaliy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Ta'lim jarayonini o'yinlar yordamida tashkil etish o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi. Misol uchun matematika darsida topshiriqlarni virtual o'yin formatida taqdim qilish o'quvchilarni faollashtiradi.

Ta'limga oid virtual o'yinlar o'yin orqali o'rgatishni maqsad qilgan dasturlar bo'lib, ular bolalar va kattalarga turli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda yordam beradi. Quyida ta'limga oid virtual o'yinlarga misollar keltirilgan:

1. Bolalar uchun ta'limiy o'yinlar

ABCmouse – bolalarga harflar, so'zlar, matematika va san'atni o'rgatishga qaratilgan interaktiv o'yin.

2. Matematika va mantiqiy fikrlash o'yinlari

Prodigy Math Game – matematika qobiliyatlarini oshirish uchun sarguzasht janridagi o'yin.

3. Fan va texnologiyaga oid o'yinlar

Minecraft: Education Edition – matematika, tarix, biologiya va kompyuter dasturlashni urgatadigan o'yinlar. o'yinlar

4. Tabiat va tarix fanlariga oid o'yinlar

National Geographic Kids – tabiat va tarix fanlarini o'rgatishga qaratilgan interaktiv o'yinlar.

Kreativ metodlarda dars jarayonida aktyorlik o'yinlarini o'ynashi, bolalarni qiziqishlarini oshiribgina qolmay, jarayonga nodatiy yondashuvni o'rgatadi. O'quvchilar dars davomida turli rollarga kirib, muammolarni hal qiladilar. Masalan, tarix darsida mashhur tarixiy voqealarni teatr ko'rinishida sahnalashtirish mumkin. Bu usullar ijodkorlikni rivojlantiradi va o'rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshiradi.

Muammo asosida o'qitish ham o'quvchini o'ylashga va muammolarga yechim izlashga majbur qiladi. O'quvchilarga hayotiy masalalar bo'yicha mustaqil fikrlash va yechim topish vazifasi beriladi. Masalan, "Maktabni qanday ekologik muammolardan himoya qilish mumkin?" mavzusida guruhda ishlash topshirig'i. Ushbu yondashuv mustaqil fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Kreativ metodlarning yana bir usuli STEAM loyihasi doirasi o'quvchilarni o'qitishdir. Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtirgan loyihalar o'quvchilar uchun yangi bilimlar olishning qiziqarli usulidir. Masalan, robototexnika darslari o'quvchilarni ijodiy fikrlash va texnik qobiliyatlarni rivojlantirishga undaydi. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari uqib oladilar. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. O'quvchilar o'quv jarayonida faollik ko'rsatib, o'z bilimlarini mustaqil mustahkamlaydi. Ta'lim jarayoni qiziqarli va samarali bo'lib, o'quvchilarni ijod qilishga undaydi. Kreativ metodlar orqali shakllangan ko'nikmalar o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki ijodiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bugungi kun o'quvchilari texnologiyalar bilan uyg'unlashgan muhitda o'smoqda, shuning uchun ularga ta'lim berishda kreativ metodlarni qo'llash o'quv jarayonini samaraliroq qiladi. Maktabda kreativ ta'limni qo'llash ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O'quvchilarni o'quv jarayonining markaziga qo'yib, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga katta yordam beradi. O'qituvchilarni kreativ metodlarni o'zlashtirishga tayyorlash va ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish ushbu maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois bugungi kun talablari qatorida maktablar o'quv dasturlarini ijodiy elementlar bilan boyitishi ta'lab etiladi.

Shuni ta'kidlashni istardimki, kreativ o'qitish uslublari bilan birgalikda o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarni haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

Shunday ekan kreativ ta'lim metodlari zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki ijodkor, tanqidiy fikrlaydigan va muammolarni hal qilishga qodir shaxs sifatida shakllanadilar. Ta'lim jarayonida kreativ metodlarni keng qo'llash o'qituvchilardan yuqori darajadagi professionallikni va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Shu boisdan, pedagoglar uchun kreativ metodlarni o'zlashtirish bo'yicha seminar va to'garaklar tashkil etilishi zarur deb hisoblagan xolda pedagoglarda kreativlik sifatlarini oshirish uchun quyidagi takliflarni tavsiya etamiz:

1. Pedogoglarning kreativ metodlardan foydalanishi uchun maktab darsliklariga mantiq fan saotlarini kiritish.

2. Bolalarni STEAMga jalb qilish nafaqat maktab yoshidan balki maktabgacha yoshdan boshlab o'rgatish kerak.

3. Kreativ metodlardan foydalanish bo'yicha internet saytlarida (telegram, facebook, youtube) online darslar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umumiy pedagogika. B.X.Xodjayev. "Sano-standart" nashriyoti, Toshkent-2017

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD,2014.

3. Инновацион таълим технологиялари /Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: "Сано стандарт" нашриёти, 2015. – 81-б.

4. Internet saytlar.